



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 659-663 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SANOAT KORXONALARI IQTISODIY SALOHIYATI NAZARIYASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Shanazarova Nilufar Baratovna

Toshkent davlat transport universiteti

“Transport iqtisodiyoti” dos.v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatiga oid nazariy qarashlar tahlili keltirilgan. Shuningdek iqtisodiy olimlarning salohiyat, iqtisodiy salohiyat atamalarini mohiyatini atroflicha yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: Salohiyat, iqtisodiy salohiyat, sanoat korxonalarini, korxonaga iqtisodiy salohiyatini, tashkilot salohiyatini.

Аннотация: В данной статье представлен анализ теоретических взглядов на экономический потенциал промышленных предприятий. Также подробно рассмотрена сущность терминов потенциал, экономический потенциал экономистов.

Ключевые слова: потенциал, экономический потенциал, промышленные предприятия, экономический потенциал предприятия, потенциал организации.

Abstract: this article presents an analysis of theoretical views on the economic potential of industrial enterprises. Also, the essence of the terms potential, economic potential of economic scientists is comprehensively illuminated.

Keywords: capacity, economic potential, industrial enterprises, economic potential of the enterprise, organizational potential.

Kirish.

O'zbekiston sanoati mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, sanoat korxonalarini – barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, eksportdan olinayotgan daromadlarni oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ustuvor rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy tanglik, ya'ni aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish va pirovardida aholini yashash tarzini yuksaltirishga asos bo'lmoqda.

Bugungi kunda sanoat korxonalarini nafaqat yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan tarmoq sifatida, eksportni barqaror oshirib borayotgan, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilayotgan hamda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya va tubdan texnik va texnologik jihatdan yangilab borayotganligi bilan ham ajralib turadi.

So'ngi yillarda sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi jadal sur'atlarda o'sib bormoqda va mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi sezilarli darajada oshmoqda. Biroq, umuman olib qaraganda O'zbekiston sanoat tarmog'ining mavjud salohiyatini va zahiralaridan to'liq foydalanilmayapti. Bu esa, to'qimachilik

korxonalarining zahiralari va iqtisodiy salohiyatini chuqur ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Ma'lumki, bugungi kunda sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyati tushunchasi, tarkibiy qismlari, uni baholash ko'rsatkichlari bo'yicha ko'pgina tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarining o'ziga hos rivojlanish xususiyatlarini to'liq qamrab olgan va unga asosan tarmoq korxonalari iqtisodiy salohiyati tushunchasi, uni baholash ko'rsatkichlari va iqtisodiy salohiyani oshirish mexanizmlari bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha to'qimachilik sanoati tashkiliy-iqtisodiy mohiyati, tarkibi, rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda to'qimachilik sanoati korxonalari uchun iqtisodiy salohiyat tushunchasi, tarkibi va uni baholash bo'yicha ko'rsatkichlarni ilmiy jihatdan shakllantirish va iqtisodiy mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiq.

Ushbu jihatlarni ochib berish uchun avvalambor, "salohiyat", "iqtisodiy salohiyat" tushunchalari bo'yicha iqtisodchi olimlar talqinlarini tahlil qilib chiqish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

"Salohiyat" tushunchasi lotincha "potential" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u kuch, yashirin imkoniyat ma'nosini bildiradi. Shu o'rinda umumiy iqtisodiyot nuqtai nazaridan, Arxipov V.M. [1] shunday ta'rif beradi: "salohiyat" – belgilangan maqsadlar yoki qo'yilgan vazifalarni yechish uchun jalb etilishi mumkin bo'lgan mavjud vositalar, zaxiralar va manbalar" dir. Olim tomonidan berilgan talqin "salohiyat" to'g'risida umumiy tushuncha shakllanishiga asos bo'lsada, "salohiyat" ni shakllantiruvchi omillarning ta'siri iqtisodiy jihatdan asoslanmagan.

Korxonalar darajasida "salohiyat" tushunchasiga Kleyner G.B., Tambovsev V.L. va Kas'halov R.M.lar [2] tomonidan qiziqarli talqin berilgan, ya'ni ularning fikricha, muayyan bir korxonada salohiyati tashqi ijtimoiy-iqtisodiy muhitdagi resurslari, holati va harakatini tavsiflovchi tarkibiy qismlardan tashkil topadi.

Fikrimizcha, ushbu talqin korxonalar iqtisodiy salohiyati mohiyatini ilmiy va nazariy jihatdan asos bo'la oladi.

Shu o'rinda Temnova N.K. [3] tomonidan "salohiyat" tushunchasiga berilgan ta'rif e'tiborga loyiq, ya'ni uning fikricha: "salohiyat" – bu resurslargina emas, balki qandaydir maqsadli yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirish va natija olish uchun imkoniyatdir. Shuningdek, u "salohiyat" ga sinergetik yondashuv qo'llanish lozimligini ta'kidlaydi.

B. Rayan [4] tashkilot salohiyati bo'yicha quyidagi umumiy ko'rinishda, ya'ni "tashkilot salohiyati maqsadli yo'naltirilgan ishni bajarish bo'yicha haqiqiy va extimoliy qobiliyatni bildiradi" deb ta'riflaydi.

Shu o'rinda, korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati nuqtai nazaridan Bogataya I.N. tomonidan korxonada salohiyati ta'rifiga buxgalteriya jihatdan talqin berilgan. Uning fikricha [5], "korxonada salohiyati – moliyaviy-xo'jalik faoliyat yakunida aktivlar, uning shakllanish manbalari va ularning qobiliyati ma'lum moliyaviy natijalarga olib keladi".

Bogataya I.N. tomonidan berilgan talqin, bugungi bozor munosabatlari sharoitida dolzarb bo'lib, bugungi kunda korxonalarining moliyaviy natijalari va larni boshqarish ustuvor masalab bo'lib qolmoqda.

Ko'p hollarda "salohiyat", "zahira" tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Jumladan, iqtisodchi olimlar Barngols S.B. [6] va Savitskaya G.V. [7] qo'yidagi ta'rifni berishgan: korxonalar salohiyati – bu ma'lum sharoitda qo'shimcha talabni qondirish uchun doimiy yaratiladigan moddiy resurslar, boshqa tomondan esa, bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning foydalanilmagan imkoniyatlaridir".

Fikrimizcha, ushbu berilgan talqin to'qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy-xo'jalik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu korxonalarining iqtisodiy salohiyati tushunchasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Yuqoridagi talqinlardan kelib chiqqan holda, "salohiyat" deganda mavjud shart-sharoitning o'zgarishi bilan korxonaning yashirin imkoniyatlarini haqiqiy holatda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan xo'jalik yuritish subyektlari faoliyati vositalari, imkoniyatlari, qobiliyati, xususan amalga oshmagan zahiralarni majmuini tushunish to'g'ri bo'ladi.

"Salohiyat" tushunchasiga bo'lgan keng ma'noli talqinlar gap qanday vositalar, zaxiralar va manbalarning kuchi to'g'risida fikr yuritilayotganligidan kelib chiqqan holda, uni ilm-fan va xo'jalik yuritishning turli sohalariga qo'llash uchun imkon beradi.

"Salohiyat" mohiyatiga bunday ta'rif berilishi tashkilot va korxonalarining iqtisodiy faoliyatining turli yo'nalishlariga kengroq qo'llash imkonini beradi va uni "iqtisodiy salohiyat" deb nomlash mumkin.

"Iqtisodiy salohiyat" tushunchasini iqtisodiy toifa sifatida o'rganish va tahlil qilish natijasida shuni aytish mumkinki, u nafaqat nazariy ahamiyatga, balki amaliy xususiyatga ham ega. Shu o'rinda "iqtisodiy salohiyat" mohiyati va tarkibini batafsil ko'rib chiqamiz.

Iqtisodchi-olim Buxalkov M.I. fikricha, "har qanday korxonaning iqtisodiy salohiyati rejalashtirilgan ishlar, xizmatlarni ishlab chiqarish uchun tashkilot ixtiyorida bo'lgan resurslar tarkibi: mehnat, moddiy, moliyaviy va boshqalarni o'zida aks ettiradi". Fikrimizcha, Buxalkov M.I. tomonidan berilgan tushuncha qiziqarli bo'lsada, u tor ma'noda talqin etilgan.

Spirin V.S. yondashuviga qaraganda "iqtisodiy salohiyat mavjud va foydalanilmagan zahiralarni o'zida jamlagan resurslar majmui orqali aniqlanadi".

Rayzberg B.A. fikricha, "iqtisodiy salohiyat maksimal darajada foyda olish uchun korxonaning jami mavjud cheklangan resurslaridan samarali foydalanishni izohlaydi hamda ishlab chiqarish va iqtisodiy tizim salohiyatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi".

Sosnenko L.S. "iqtisodiy salohiyat"ni obyekt sifatida tadqiq etishni ikkita yo'nalishga ajratadi. Bir tomondan iqtisodiy salohiyatga xo'jalik yuritish subyektlarining umumiy resurslari, ikkinchi tomondan xo'jalik yuritish subyektlarining jamiyat talabini qondirish uchun mavjud resurslarni o'zlashtirish va qayta ishlash qobiliyati sifatida qaraladi.

Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan ishda, shunday talqin beriladiki, "iqtisodiy salohiyat bu muayyan sohada maqsadlarga erishish, belgilangan vazifalarni yechish uchun tashkilot tomonidan foydalanish mumkin bo'lgan manbalar, imkoniyatlar, vositalar va zahiralardir".

O'zbek olimlari tomonidan "iqtisodiy salohiyat" tushunchasiga quyidagicha yondashuvni berishgan, ya'ni "korxonaning iqtisodiy salohiyati deganda unda sodir

etilgan iqtisodiy jarayonni to'liq ta'minlaydigan barcha moddiy va mehnat resurslari hamda nomoddiy faollar tushuniladi"

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada ilmiy-nazariy asos sifatida iqtisodiy salohiyat, korxonalar salohiyatiga oid iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotni rivojlantirishda uning ahamiyatiga oid ilmiy asarlari o'rganilgan. Mavzuni o'rganish davomida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

qo'llab-quvvatlanishning aniq ko'rinishidir.

Yuqorida iqtisodiy salohiyat ta'rifiga berilgan talqinlardan kelib chiqqan holda ularni ikkita yo'nalishga ajratish mumkin:

- iqtisodiy salohiyat bu mavjud resurslar majmui;
- iqtisodiy salohiyat bu ishlab chiqarish kuchlarining muayyan natijalarga erishish qobiliyati.

Birinci holatda "iqtisodiy salohiyat" tushunchasiga faqat resurslar nuqtai nazaridan yonidashilmoqda. Bu esa iqtisodiy salohiyatning keng qamrovli iqtisodiy mohiyatini to'liq ochish imkonini bermaydi. Ikkinchi holatda esa, faqat iqtisodiy salohiyatdan foydalanish natijalariga asosiy e'tibor qaratilgan.

Har qanday xo'jalik yuritish subyektlarining nazariyasi va amaliyotida maqsadli yo'nalish majburiydir, biroq uni belgilangan maqsadlarga erishish manbalari va vositalari hisoblangan iqtisodiy o'sish va rivojlanish, samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish, zahiralar imkoniyatlarisiz amalga oshirish mumkin emas.

Shu nuqtai nazardan, bizning fikrimizcha, to'qimachilik sanoati korxonalar iqtisodiy salohiyati tushunchasiga yuqorida keltirilgan yo'nalishlarni uyg'unlashtirgan holda uchinchi alohida yondashuvni berish mumkin. Ushbu yondashuvda to'qimachilik sanoati korxonalarining mavjud resurslari maksimal darajada foydalanish va belgilangan samaradorlikka erishish qobiliyatini ham inobatga olish maqsadga muvofiq.

Ayrim ilmiy iqtisodiy tadqiqotlarda korxonalar iqtisodiy salohiyatining bunday yondashuviga yaqin talqinlar ham uchray turadi. Xususan, professor Kovalev V.V. korxonaning iqtisodiy salohiyati deganda mavjud moddiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan foydalangan holda korxonaning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish qobiliyatini to'shungan. Marushkov R.V. o'zining ilmiy ishida iqtisodiy salohiyatni mavjud resurslar tizimidan foydalangan holda korxonaning uzoq muddatli faoliyat yuritishi va strategik maqsadlarga erishish qobiliyati sifatida talqin etadi.

Qo'rilish korxonalar iqtisodiy salohiyati bo'yicha tayyorlangan ilmiy ishda, quyidagi yondashuv berilgan: "korxonalar iqtisodiy salohiyati o'zida mehnat aktivlari, asosiy ishlab chiqarish jamg'armalari, aylanma mablag'lar, nomoddiy aktivlar va yer resurslari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar natijasida shakllanadigan qobiliyat"ni aks ettiradi.

Joglina YE.V. fikricha, "iqtisodiy salohiyat – bu tabiiy, moddiy, moliyaviy, mehnat va intellektual resurslarga asoslangan iqtisodiy-ishlab chiqarish faoliyatini (mahsulot, xizmatlar ishlab chiqarish, aholi talablarini qondirish, ishlab chiqarish va iste'molni rivojlanishini ta'minlash) amalga oshirishning aniq tizimlarini o'zida aks ettirgan umumiy

qobiliyatni anglatadi". Korxonaning iqtisodiy salohiyatiga Jigunova O.A. tomonidan berilgan yondashuv e'tiborga loyiq. Unda korxonaning iqtisodiy salohiyati tushunchasini aniqlashda birinchi darajaga korxonaning barqaror faoliyat yuritishi, uning noqulay holatlarga bardosh berish qobiliyati, shuningdek korxonaning rivojlanish vazifalarini qo'yadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, u tomonidan quyidagi ta'rif beriladi: "korxonaning iqtisodiy salohiyati – bu mavjud resurslardan oqilona foydalangan holda tashqi va ichki muhitning o'zaro munosabati, barqaror o'sishni ta'minlash va strategik maqsadlarga erishish bilan shartlanadigan umumiy qobiliyat va mavjud imkoniyatlarga ega bo'lish xususiyatidir". Iqtisodchi olim Shepetova V.N. [6.12] tomonidan tijorat korxonalari iqtisodiy salohiyati nuqtai nazaridan quyidagicha yondashuv keltiriladi: "iqtisodiy salohiyat – bu tashqi va ichki muhit omillarining o'zaro munosabati sharoitida jami mavjud resurslardan samarali foydalanish asosida korxonaning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish qobiliyatidir".

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirilgan "salohiyat", "iqtisodiy salohiyat" "korxonalar iqtisodiy salohiyati" tushunchalari bo'yicha iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan nazariy qarashlar va ilmiy g'oyalar tahlillaridan shuni xulosa qilish mumkinki:

- hozirgi vaqtgacha "korxonalar iqtisodiy salohiyati" bo'yicha ilmiy va iqtisodiy asoslangan yaxlit tushuncha berilmagan;
- "korxonalar iqtisodiy salohiyati" bo'yicha tushuncha har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilishi lozim;
- o'zbek iqtisodchi olimlari tomonidan "korxonalar iqtisodiy salohiyati"ning nazariy-uslubiy jihatlari deyarli o'rganilmagan.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan "salohiyat", "iqtisodiy salohiyat" "korxonalar iqtisodiy salohiyati" tushunchalari bo'yicha berilgan nazariy qarashlar va ilmiy g'oyalar hamda to'qimachilik sanoatining o'ziga xos rivojlanishi va faoliyat yuritishini inobatga olgan holda sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyati yuzasidan quyidagi ta'rifni berish mumkin.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Архипов, В. М. Проектирование производственного потенциала объединений (теоретический аспект)/ В. М. Архипов. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1984
2. Клейнер Г. Б., Тамбовцев В. Л., Качалов Р. М. 1997. Предприятие в нестабильной экономической среде: риски, стратегии, безопасность. М.: Экономика
3. Темнова М.К. Понятие "Потенциал" как организационно-экономическая категория. //№6(269) Технология текстильной промышленности. 2012
4. Райан, Б. Стратегический учет для руководителя / Б. Райан. – Москва : ЮНИТИ, 1998. – 616 с. – ISBN 5-85177-044-9.
5. Богатая И.Н. Стратегический учет собственности предприятия. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001.
6. Барнгольд С.Б. Экономический анализ хозяйственной деятельности на современном этапе развития. – М.: Финансы и статистика, 1984

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

